



INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASH TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xolbaev Azamat Yuldashovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Sug`urta ishi” kafedrası dotsenti PhD

e-mail: xolbayev.azamat80@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan informatsion xatarlar va ularni sug`urta orqali boshqarishning dolzarb jihatlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan informatsion risklarning turlari, ularning biznes sub`ektlari va davlat tashkilotlariga ta`siri o`rganilgan hamda amalda mavjud sug`urta turlarining samaradorligi baholangan.

Maqolada sug`urta bozorida informatsion risklar uchun moslangan yangi sug`urta mahsulotlarini joriy etish, xavfni baholashning ilmiy asoslangan yondashuvlarini ishlab chiqish, tarif siyosatini differentsiatsiya qilish va elektron tijorat hamda axborot aktivlarini himoya qilishga qaratilgan tavsiyalar bayon etilgan.

Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili orqali O`zbekiston sharoitiga mos keluvchi zamonaviy sug`urta mexanizmlarini tatbiq etish bo`yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari milliy sug`urta bozorida informatsion risklarni samarali boshqarishga xizmat qiladigan ilmiy va amaliy asoslarni shakllantirishga qaratilgandir.

**Kalit so`zlar:** sug`urta, kibersug`urta, moliyaviy resurs, informatsion risklar, sug`urta xizmatlari, sug`urta mukofotlari, ustav kapitali, zaxira.



Kirish. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Bu esa axborot resurslaridan foydalanish hajmining ortishi, elektron tijoratning kengayishi va raqamli platformalar orqali faoliyat yurituvchi sub'ektlar soni ko'payishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi, ma'lumotlarning maxfiyligi va tizimlarning barqaror ishlashini ta'minlash masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Informatsion risklar — bu axborot tizimlari va resurslariga tahdid soluvchi, ularning ishlashini izdan chiqaruvchi, moliyaviy yoki imidjiy yo'qotishlarga olib keluvchi xavflardir. Bunday risklar nafaqat yirik biznes sub'ektlariga, balki kichik va o'rta tadbirkorlik, davlat tashkilotlari va oddiy foydalanuvchilarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur sharoitda informatsion risklarni samarali boshqarish va ularni minimallashtirishning eng muhim vositalaridan biri bu — sug'urta mexanizmlaridan foydalanishdir. Dunyo amaliyotida informatsion xavflar uchun maxsus moslashtirilgan kibersug'urta, ma'lumotlarni tiklash xarajatlarini qoplash, huquqiy himoya xarajatlarini sug'urta qilish kabi turli sug'urta turlari keng qo'llanilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Informatsion risklarni sug'urtalashning moliyaviy-iqtisodiy jihatlari xorijiy iqtisodchi olimlar K.Ruan, Paul Klumpes, Donatella Porrini[1], R.Böhme, G.Schwartz, H.Narang, A.Sharapov[2], Ye.Baranova, I.Ivanov, V.Nomokonov[3], T.Tropina, S.Smirnov[4], L.Mamaeva, V.Larionovlar tadqiqotlarida uchraydi .

Mahalliy iqtisodchi olimlar: H.Sobirov, X.Shennaev, Q.Qo'ldoshev, A.Jo'raev[5], S.Umarov, R.Azimov[10], T.Baymuratov[6], I.Abduraxmonov, A.Xolbayev[7], G.Xalikulova, I.Kenjaev[8], S.Sherov, F.Xasanov U.Imomov, G.Adilovalar[9] ning tadqiqotlarida sug'urta sohasi va informatsion risklarni sug'urtalashning ayrim masalalari tadqiq etilgan.



Tadqiqot usullari. Tadqiqotni bajarish jarayonida tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlashtirish, o‘zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi kunda mamlakatimizning milliy sug‘urta bozorida informatsion risklarni sug‘urtalashni talab darajasida shakllantirishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat bo‘ladi, jumladan:

- O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanib bormoqda va bunda asosiy o‘rinni axborot egallab bormoqda;
- jamiyat va davlat hamda boshqa sub’ektlar uchun informatsion tizimlarning har tomonlama himoyalanganlik masalasi har kundanda dolzarb masalaga aylanib bormoqda;
- kundan kunga informatsiyalarni buzish, o‘g‘irlash, yo‘q qilish holatlarining kuchayib borishi, shuningdek viruslarning keng tarqalishi ularning but saqlanishiga tahdidlar ko‘chayib bormoqda;
- informatsion tizimlarni ishlab chiquvchilar, informatsiya egalari va undan foydalanuvchilar orasida informatsiyani saqlash, tarqatish va boshqa malalalar bo‘yicha javobgarlik hamda majburiyatlar taqsimlash zaruratining dolzarb masalaga aylanishi.

Yuqoridagilar kelib chiqqan holda informatsion risklarni sug‘urta yo‘li bilan himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini yaratishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat, ya’ni:

- texnologiyalar bilan bog‘liq jinoyatlarning hayotimizning ajralmas qismiga aylanish borishi, turli noqonuniy harakatlar natijasida informatsiyaning o‘g‘irlanishi, buzilishi, oshkor qilinishi, yo‘qolishi, unga o‘zgartirishlar kiritilishi, bloklanishi, uchunchi shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari kupayib borish tendensiyalari;



– sugʻurta kompaniyalarining investitsion salohiyatlaridan va ularning fundamental funksiyalaridan foydalangan holda oʻzlari uchun infratuzilmani yaratishni ragʻbatlantirish. Bunda talabni shakllantirish, tariflarni nafaqat zararlarni qoplash balki daromad olish nuqtai nazaridan ham optimal oʻrnatish;

– maʼlumotlarni yoʻqolish va ularga noqonuniy oʻzgartirishlar kiritish xavflarini kamaytirish, hamda sugʻurtaning ogohlantirish funksiyasidan foydalangan holda zararlarning oldini olish uchun profilaktika ishlarini samarali olib borish uchun ularni lozim darajada moliyalashtirib borishni takomillashtirish, bunda nafaqat sugʻurta kompaniyalari mablagʻlari hisobiga balki davlat va xorijiy grantlarni jalb qilish orqali ham samarali amalga oshirib borish. Bunday chora tadbirlar ularning yuz berish ehtimollarini bir necha barobarga kamaytirishga zamin yaratib berishi mumkin boʻladi.

Subʼektlarda informatsion risklarning yuz berishi natijasida quyidagi turdagi moliyaviy xarajatlar yuz berishi mumkin (3.1-jadval)

Subʼektlar kelajakda sodir boʻlishi mumkin boʻlgan salbiy hodisalar oqibatlarini oldini olish maqsadida koʻplab xarajatlarga duch kelishlari mumkin. Bu xarajatlarning ayrimlari subʼekt faoliyatining iqtisodiy natijasiga teng boʻlishi mumkin. Ayrim hollar esa ular sezilarli boʻlmaydi. Har qanday holatda ham iqtisodiy faoliyatda yuz beradigan barcha turdagi xarajatlar xoʻjalik yurituvchi subʼektning moliyaviy ahvoliga bilvosita va bevosita taʼsir koʻrsatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda barcha xarajatlar majmui subʼektning yakuniny moliyaviy natijalariga taʼsir koʻrsatishi va uning moliyaviy barqarorligini bir necha barobarga tushirib yuborishi mumkin, ayrim hollarda bankrotlikka ham olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda sugʻurta kompaniyalari subʼektning kutilishi mumkin boʻlgan xarajatlarini kamaytirish, uni oldini olish choralarin koʻllash boʻyicha



sugʻurta mahsulotlarini ishlab chiqishlari, taqdim etishlari muhim iqtisodiy masala hisoblanadi.

Hozirgi kunda sugʻurta kompaniyalari tomonidan informatsion risklarning bir turi boʻlgan kiber risklarni qisman yoki toʻliq sugʻurta qilish mumkin boʻlgan risklar quyidagilardan iboratdir, yaʼni:

- subʼekt xodimlari tomonidan maxfiy maʼlumotlarni oʻzlashtirishlar va ulardan gʻarazli niyatlarda foydalanish risklari;
- xakerlarning subʼekt mijozlarining kredit karta raqamlari yoki ularning hisob varaqlari maʼlumotlari toʻgʻrisidagi malumotlarni noqonuniy tarzda olish riski;
- subʼekt hisobvaraqlaridagi pul mablagʻlarining yoki omonatda boʻlgan pul mablagʻlarini oʻgʻirlash riski;
- korxonaning turli maxfiy maʼlumotlarining oshkor boʻlish riski;
- gʻarazli nichtda serverga kirish, u erdagi maʼlumotlarni ruxsatsiz, qonunga gʻilof ravishda oʻzgartirish, buzish risklari;
- virtual shantaj (fribgarlik) – kiberhujumni toʻxtatish yoki oʻgʻirlangan maʼlumotlarni qaytarib berish, tiklash uchun pul talab qilish risklari;
- maʼlumotlar bazasining nosoz ishlash bilan bogʻliq;
- maʼlumotlarni saqlaydigan va tashiydigan raqamli vositlarni yoʻqotish (oʻgʻirlanish) risklari.

Shuningdek rivojlangan sugʻurta bozorlarida informatsion risklarni sugʻurtalashga qoʻshimcha ravishda quyidagi risk va ular bilan bogʻliq xarajatlari qoʻshimcha ravishda sugʻurtalash amaliyoti keng tarqalgan. Bunga misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- kiberjinoyatlarni aniqlash, ularning oldini olish uchun sarflanadigan moliyaviy xarajatlarni qoplash;



- yetkazilgan zararlar natijasida sub'ekt reytingining tushib ketishi oqibatida imiji va obro'sini ko'tarish bo'yicha turli xil tadbirlarni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar;
- zarardan keyin holatlarda yuzaga keladigan xuquqiy himoya bilan bog'liq tadbirlar xaradatlari;
- informatsion tizimlarini tiklash xarajatlarini qoplash berish va boshqalar.

Hozirgi kunda informatsion risklarni sug'urtalash qamrovini oshirishda sug'urta kompaniyalari turli mahsulotlarni yaratib kelishmoqda. Bunda ularning mol-mulki, xodimlarining sog'lig'i, ularning uchinchi shaxslar oldidagi moddiy javobgarliklari va boshqalarni birgalikda o'z ichiga olgan universal mahsulotlarni ko'rsatish keng tarqalib bormoqda. Bunda uchinchi shaxslar oldidagi javobgarlikni sug'urtalashni alohida ko'satishimiz mumkin. Sababi u informatsion risklardan keyin katta zararlar keltirishi mumkinligi hisobiga ikkinchi o'rinda turadi. Bunday xizmatlarni qo'shib taklif etish suyu'ektlarni har tomonlama himoya qilishni o'zida mujassam etadi va sug'urta mahsulotining jozibadorligini oshiradi. Hozirda bunday sug'urta mahsulotlari xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib etilib kelinmoqda. Ularning ayrimlarini milliy sug'urta bozorida ham qo'llash yaxshi samara berishi tabiiydir. Ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz, jumladan:

- ma'lumotlarni himoyasini ta'minlaydigan sub'ektlarning (ishlab chiqaruvchilar yoki ularga bevosita xizmat ko'rsatuvchi vositachilar) o'zlari bilib yoki bilmasdan uchinchi shaxslarga zarar keltirishning fuqarolik javobgarligini sug'urta qilishning turlari;
- elektron platformalar (e-xarid, e-auksion savdo maydonchalari va boshqalar) va turli savdo birjalarning xatolari tufayli uchinchi shaxslarga etkazilishi mumkin bo'lgan moliyaviy, iqtisodiy ma'naviy javobgarliklarini ta'minlaydigan sug'urta polislar;
- ma'lumotlar (ochiq ma'lumotlar) infratuzilmasida faoliyat yurituvchi litsenziyalashgan markazlarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish kabi risklar.



Informatsion mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etuvchi sub'ektlar uchun uchinchi shaxslarga zarar keltirish javobgarligini sug'urta qilish bu yomon, g'arazli niyatli bo'lgan shaxslarning xatti-harakatlari bunday mahsulotlardagi zaiflik, nuqsonlarni aniqlanishi natijasida mijozga tegishli ma'lumotlarning o'g'irlanishi natijasida mahsulot iste'molchilari tomonidan etkazilgan zararlarni to'lab berishda huquqni muhofaza organlariga murojatlari natijasida da'vo arizalaridan himoyalashida aks qotadi. Amaliyotda sub'ektlarning o'z mablag'lari va aktivlari ular mijozlarga etkazishi mumkin bo'lgan zarar miqdorlaridan bir necha barobar ko'p miqdorlarni tashkil etishi mumkin. Shu sababli ular uchinchi shaxslarga etkazgan zararlari natijasida bankrot bo'lishlari turgan gap. Sababi amaliyotda moddiy zararni hisoblash mumkin va ular asoslangan bo'ladi. Agar zarar ma'naviy (obro', imij) bo'ladigan bo'lsa ularni baholashda esa katta miqdorlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Informatsion risklarni sug'urtalash muammosini hal qilish bevosita mavjud risklarni miqdoriy baholash va bashorat qilish imkoniyatiga, hamda sohani huquqiy jihatdan tartibga solish normalarining mavjudligiga bog'liq hisoblanadi. Eng achinarlisi milliy sug'urta xizmatlar bozorida informatsion risklarni sug'urtalash bo'yicha qonunchilik bazasini yaratish masalalarini muhokama qilishga etarlicha e'tibor berilmayapti. Vaholanki, milliy sug'urta xizmatlar bozorida informatsion risklarni sug'urtalash, risklarni ehtimollik darajasiga ko'ra baholash va sug'urtalash tartibi, qoidalarini ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda har tomonlama milliy amaliyotni hisobga olgan holda qabul qilish va tasdiqlash ishlarini jadallashtirish amaliyotini tezlashtirish kerak bo'ladi. Bu jarayonlarda informatsion risklarni sug'urtalashning tashkiliy tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi milliy sug'urta bozorimizda informatsion risklarni sug'urtalashda katta iqtisodiy salohiyatga egaligi, hamda informatsion risklarni sug'urtalash bu sub'ekt boshqaruvining umum qabul qilingan madaniyati doirasining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lishi kerak.



Yaqin istiqbolida informatsion risklarni sug'urtalash sohasida qo'yidagi yo'nalishlarda asosiy faoliyatlarini olib orish kerak bo'ladi, bunda nafaqat davlat va maxsus vakolatli organlar balki ular bir qatorda sug'urta kompaniyalari ham o'z faoliyatlarini rivojlantirib borishlari kerak bo'ladi. Bu yo'nalishlar qo'yidagilardan iborat bo'lishi kerak, jumladan:

Birinchi yo'nalish, kiber sug'urta turlarini keng joriy etish. Kibersug'urta – bu ma'lumotlarni turli risklardan, jumladan xakerlik hujumlaridan, mavjud xavfsizlik tizimlarining buzilishlaridan sug'urta himoyasini taqdim etuvchi himoya vositalarini joriy etilishi, bizning misolimizda bu kiber sug'urtadir. Bunda qo'yidagi risklar guruhi sug'urtaga qabul qilinishi kerak bo'ladi: xakerlik hujumlari, zararli dasturlar, fishing (phishing) va DDoS (Distributed Denial of Service) hujumlari. *Ikkinchi yo'nalish, informatsion risklarni baholash va aniqlash.* Bu yo'nalishning asosiy maqsadi bu etkazilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini adolatli baholash, hamda sug'urta shartnomasi tuzishga ularning miqdorlarini to'g'ri baholashni qamrab oladi. Sababi etkazilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdori to'g'ri baholash sug'urta kompaniyalariga ular bo'yicha zaxira fondlarini shakllantirish imkoniyatini beradi, shuningdek, tarif stavkalarini to'g'ri va adolatli o'rnatishni anglatadi. Yuqoridagilarna amalga oshirishda qo'yidagilar muhim hisoblanadi, ya'ni::

- Risklarning yuz berishi ehtimolini to'g'ri baholash: mijozlarning informatsion va ma'lumotlar tizimlarining ishlash tamoyillari, faoliyatlari qolaversa jarayonlari iqtisodiy tahlil qilinib, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan risklar majmuasi aniqlanadi, hamda ular etkazishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorlari prognoz qilinadi.
- Informatsion risk va xavflarni aniqlash: informatsion risklarga tahdidlarni (masalan, xavfli dasturlar, viruslar va boshqalar) va aniqlash yo'llari tahlil qilinadi.
- Sug'urtalanuvchilarining ish jarayonlaridagi tizimlari va informatsion dasturlarining ishlash tizimlarining boshqaruvi. Bunda informatsion risklarning ta'sirini



kamaytirish va oldini olish borasida texnologik va ma'muriy chora-tadbirlar majmualari ishlab chiqiladi.

Uchinchi yo'nalish, sug'urtalanuvchilar tizimlari va informatsiyalarini tiklash jarayonlari. Sug'urtalanuvchilarning ish jarayonlarida foydalaniladigan ma'lumotlarini saqlashi, himoyalashi va ularni qayta tiklash sug'urtaning asosiy qismiga aylanadi. Sababi sug'urta kompaniyasi ma'lumotlarni tiklab bermiydi balki ularni qayta tiklash uchun ketadigan harajatlarni qoplab beradi. Bunday holatlarni oldini olishda qo'yidagi chora-tadbirlar amalga oishiriladi, jumladan: mavjud ma'lumotlarning rezervlarini tashkil etish (ularni arxivlashtirish), ularni boshqa serverlarda saqlash choralari qamrab oladi: shuningdek tafsiyaga etilgan chora-tadbirlar majmuasi asosida ma'lumotlarini but saqlanishini lozim darajada ta'minlay olmasa, u holda zarardan keyingi xatti-xarakatlar majmuasi va chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqariladi.

To'rtinchi yo'nalish, shaxsiy va maxfiy informatsiyalarni but saqlanish kafolati. Bunday holatda sug'urta kompaniyalari yoki boshqa informatsion risklarni baholaydigan va tiklaydigan kompaniyalar o'z faoliyatlari natijasida sug'urtalanuvchidan olgan ma'lumotlarni mahfiy saqlanishi va boshqalarga oshkor etmasliklari kafolatlanishi kerak bo'ladi, ya'ni ular g'araz niyatda foydalanishlariga yo'l qo'yilmaydi. Bunday talablarni bajarish bo'yicha ko'plab talablar, normalar, siyosatlar ishlab chiqilgan. Ularga amal qilish ish yuritish etikasini ham belgilab beradi.

Umuman olgan barcha zamonoviy texnologiyalar birinchi navbatda shaxsiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Keyinchalik esa ularga aloqador ma'lumotlarni but saqlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, ularning samarali himoya tizimlarini joriy etish bo'yicha qarorlar qabul qilishga ta'sir qilishi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda informatsion risklarni sug'urtalash yo'lidagi to'siqlar qatoriga sug'urtalovchilarning bu boradagi tajribasi yo'qligi va shunga mos ravishda ularning



ma'lum darajada malakasizligi kiradi. Tadqiqotlari natijasida muammolar asosan salohiyatli sug'urtalovchining IT-texnologiyalari va xavfsizligi ta'minlashning asosiy mazmun mohiyatini tushinib etmasliklaridan kelib chiqadi. Ayrim hollarda uning asl maqsadi sug'urtalanuvchilar uchun ko'pincha tushunarsiz bo'ladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda informatsion risklarni baholashga o'ziga xos yondashuv mavjud emas va informatsion risklarni sug'urtalash bo'yicha alohida sug'urta tariflari ham mavjud emas, buning uchun sug'urtaning xavfli turlari bo'yicha odatiy metodologiya qo'llaniladi, bu bizning mamlakatimizda ushbu segmentning rivojlanishini sekinlashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, milliy sug'urta bozorimizda informatsion risklarni sug'urtalash sug'urta turi o'zining rivojlanish bosqichlarini boshidan kechirmoqda. Bunda nafaqat sug'urta kompaniyalari va salohiyatli sug'urtalanuvchilar balki davlat ham bir qator samarali qiziqishlarni namoyon etib kelmoqda. Bunday sharoitlarda bu sug'urta turining yaqin kelajakdagi istiqboli ijobiy holatlarni namoyon etishi to'g'risida ta'kidlashimiz mumkin bo'ladi. Lekin bu sohadi qilinishi kerak bo'lgan ishlar ancha ko'pdir. Masalan informatsion risklarni sug'urtalash bo'yicha haligacha mukammal qonunchilik bazasi yaratilmagan, balki boshlang'ich davrlarda ularning ijtimoiyo yo'naltirilgan majburiy ko'rinishlarini joriy etish to'g'risida ham fikrlar yuritish o'rinli bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kholbaev A.Yu. Information Risk Insurance: Concept and Basic Aspects // International Journal of Trend in Scientific Research and Development, Vol. 6, Issue 1, November-December 2021. – Pp.760-766.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 martdagi PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Холбаев А.Ю. Страхование информационных рисков (киберстрахование) // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent, 2021. 2-son.
5. Xolbaev A.Yu. Informatsion risklarni sug‘urtalash amaliyoti va muammolari (kiber sug‘urta) // «Logistika va iqtisodiyot» ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent. 2021. 3-son. – S.433-439.
6. Kenjaev I.G‘. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari. I.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2019 yil.
7. Xolbaev A.Yu. O‘zbekistonda informatsion risklarni sug‘urtalash amaliyotini takomillashtirish istiqbollari. I.f.f.d. PhD ilmiy darajasini olish yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2025 yil.
8. Azimov R.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida risklarni sug‘urtalash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: – 2022. – 86 b.



9. Baymuratov T.M. O‘zbekistonda sug‘urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: - 2004. – 22 b.
10. Abduraxmanov I.X. Teoriya i praktika straxovaniya: Uchebnik, – T.: «Iqtisod-moliya», 2019. -696 str.
11. Xolbaev A. Y. Insurance as a promising mechanism of information protection //Archive of Conferences.(Dec. 2021). – 2021. – C. 39-40.
12. <http://www.napp.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy sayti ma’lumotlari.